

"XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR"

Konferensiyasi



Research Science and
Innovation House



BIZNING YO'NALISHLARIMIZ:

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari
- Iqtisodiyot
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Ijtimoiy va gumanitar fanlar
- Psixologiya fanlari
- San'at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport



INDEKSLAYMIZ:



OpenAIRE

zenodo



Google
Scholar



[HTTP://UNIVERSALPUBLISHINGS.COM](http://UNIVERSALPUBLISHINGS.COM)



+998 88 808 21 07

**«XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM
TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR»** ilmiy konferensiyasi:

31.08.2023 yil.

Ushbu to'plamda **«XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR»** ilmiy konferensiyasi 2023 yil 1-soni 8-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, **Zenodo**, **Open Aire**, **Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro'yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Konferensiya materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Konferensiya materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.



**“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ**



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Eshqarayev Sadridin Chorievich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot va tabiiy fanlar kafedrasini mudiri, kimyo fanlari falsafa doktori, dotsent Termiz, O‘zbekiston.

Mas’ul kotib:

Boboyorov Sardor Uchqun o‘g‘li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Nashrga tayyorlovchi:

Eshqarayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi

TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

Texnika fanlari muharriri, Eshqarayev Ulug‘bek Chorievich – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasini dotsenti, texnika fanlari nomzodi, Denov, O‘zbekiston.

Texnika fanlari muharriri Babamuratov Bekzod Ergashevich – Termiz davlat universiteti fizik kimyo kafedrasini dotsenti, falsafa fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Kimyo fanlari muharriri Mirabbos Xojamberdiev Ikromovich- Berlin Technische Universität dotsenti, kimyo fanlari doktori, Berlin, Germaniya

Kimyo fanlari muharriri, Eshqurbonov Furqat Bozorovich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, kimyo fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Iqtisodiyot fanlari muharriri Otamurodov Shavkat Tillayevich – Termiz iqtisodiyot va servis universiteti prorektori, iqtisod fanlari doktori, Termiz, O‘zbekiston.

Ijtimoiy va gumanitar fanlar muharriri, Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich – Termiz muhandislik-texnologiya instituti, ijtimoiy-gumanitar fanlar doktori, Termiz, O‘zbekiston.



Tibbiyot fanlari muharriri Otamurodov Furqat Abdulkarimovich, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali direktori, Termiz, O'zbekiston tibbiyot fanlari falsafa doktori, Termiz, O'zbekiston.

Biologiya fanlari muharriri Nurova Zamira Annakulovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali. Termiz, O'zbekiston, biologiya fanlari doktori, dots., Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Turabayeva Zarina Kenjabekovna Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali, tibbiyot falsafa fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Sotsiologiya fani muharriri Eryigitova Lobar Qodirovna Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa sotsiologiya fanlari doktori, Termiz, O'zbekiston.

Filologiya fanlari muharriri Jo'rayeva Ramziya Abdurahimovna Qo'qon davlat pedagogika instituti. Qo'qon, O'zbekiston filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), katta o'qituvchi.

Fizika-matematika-fanlari muharriri Bobamuratov Ulug'bek Erkinovich Termiz muhandislik-texnologiya instituti, falsafa fanlari doktori, fizika-matematika-fanlari, Termiz, O'zbekiston.

Tibbiyot fanlari muharriri Axmedov Kamoliddin Xakimovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son davolash fakulteti dekani, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tibbiyot fanlari muharriri Vohidov Alisher Shavkatovich Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali Umumiy xirurgiya, bolalar xirurgiyasi va bolalar urologiyasi kafedrasini mudiri Tibbiyot fanlari doktori, professor

Gumanitar fanlar muharriri Rahmonov Abduqahhor Abdusattorovich Ma'naviy-axloqiy tarbiya va yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari, falsafa fanlari doktori (PhD)



AXBOROT XAVFSIZLIGINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA TASNIFI, AXBOROT HIMOYASI VA UNING TURKUMLARI.

Xolmo‘minov Baxtiyor Yusuf o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti Matematika va informatika fakulteti Matematika
va informatika ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Xasanov Faxriddin Zokir o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti matematika va infromatika fakulteti o‘quv ishlari
bo‘yicha dekan o‘rinbosari

Annotatsiya: Axborotning muximlik darajasi qadim zamonlardan ma'lum. Shuning uchun xam qadimda axborotni himoyalash uchun turli xil usullar qo'llanilgan. Ulardan biri – sirli yozuvdir. Undagi xabarni xabar yuborilgan manzil egasidan boshqa shaxs o'qiy olmagan. Asrlar davomida bu san'at – sirli yozuv jamiyatning yuqori tabaqalari, davlatning elchixona rezidentsiyalari va razvedka missiyalaridan tashqariga chiqmagan. Faqat bir necha o'n yil oldin hamma narsa tubdan o'zgardi, ya'ni axborot o'z qiymatiga ega bo'ldi va keng tarqaladigan mahsulotga aylandi. Uni endilikda ishlab chiqaradilar, saqlaydilar, uzatishadi, sotadilar va sotib oladilar. Bulardan tashqari uni o'g'irlaydilar, buzib talqin etadilar va soxtalashtiradilar. Shunday qilib, axborotni himoyalash zaruriyati tug'iladi.

Kalit so'zlar: kibernetika, axborot xavfsizligi, axborot kompyuter, axborot tizimlar.

Hozirgi zamon jamiyati hayotini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Kompyuterlar bank sistemasida, atom reaktorini nazorat qilishda, quvvatni taqsimlashda, samolyot hamda kosmik kemalarni boshqarishda va h.k. ishlatilmoqda. Hozir kompyuter sistemalari va telekommunikatsiyalar mamlakat mudofaa sistemasining ishonchliligi va xavfsizligini aniqlaydi, axborotni saqlash, ishlash, iste'molchiga yetkazish yo'li bilan axborot texnologiyalarini amalga oshiradi. Jamiyatning avtomatlashtirishning yuqori darajasiga intilishi uni foydalaniladigan axborot texnologiyalari xavfsizligi darajasiga bog'liq qilib qo'yadi. Haqiqatan, kompyuter sistemalarining keng ko'lamda ishlatilishi doimo o'sib boruvchi axborot hajmini ishlash jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon bersa-da, bu jarayonlarni agressiv ta'sirlarga nisbatan ojiz qilib qo'yadi. Binobarin, axborot texnologiyalaridan foydalanuvchilar oldida yangi muammo — axborot xavfsizligi muammosi ko'ndalang bo'ldi.



Xavfsizlik muammosi, aslida, yangi muammo emas, chunki o'z xavfsizligini ta'minlash har qanday sistema uchun, uning murakkabligi, tabiatidan qat'i nazar, birlamchi vazifa hisoblanadi. Ammo himoyalanuvchi obyekt axborot sistemasi boisa yoki agressiv ta'sir vositalari axborot shaklida boisa, himoyaning mutlaq yangi texnologiyalarini va metodlarini yaratishga to'g'ri keladi. Ayniqsa, ko'pchilik foydalanadigan vaqti bo'inuvchi sistemalarda hamda aloqaning oddiy telefon liniyasi yoki ochiq kompyuter tarmoqlari orqali foydalanuvchi sistemalarda himoya vositalariga boigan talab yanada yuqoriroq boiadi. Maiumotlami himoyalovchi metodlar hamda xakerlarga qarshi harakat vositalari majmuasini belgilash maqsadida kompyuter xavfsizligi atamasi ishlatila boshlandi.

Xavfsizlik — hayotimizning biz har kuni to'qnashadigan jihati: eshikni qulflaymiz, qimmatbaho narsalami begona ko'zlardan berkitamiz va hamyonni duch kelgan joyda qoldirmaymiz. Bu «raqamli dunyoga» ham rasm bo'lishi shart, chunki har bir foydalanuvchining kompyuteri qaroqchi hujumi obyekt bo'lishi mumkin. Axborot xavfsizligi. Axborot xavfsizligining dolzarblashib borishi, axborotning strategik resursga aylanib borishi bilan izohlash mumkin. Zamonaviy davlat infratuzilmasini telekommunikatsiya va axborot tarmoqlari hamda turli xildagi axborot tizimlari tashkil etib, axborot texnologiyalari va texnik vositalar jamiyatning turli jabhalarida keng qo'llanilmoqda (iqtisod, fan, ta'lim, xarbiy ish, turli texnologiyalarni boshqarish va x.k.) Iqtisodiy xavfsizlik. Milliy iqtisodda axborotlarni yaratish, tarqatish, qayta ishlash va foydalanish jarayoni hamda vositalarini qamrab olgan Yangi tarmoq vujudga keldi. «Milliy axborot resursi» tushunchasi Yangi iqtisodiy kategoriya bo'lib xizmat qilmoqda. Davlatning axborot resurslariga keltirilayotgan zarar axborot xavfsizligiga xam ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda axborotlashgan jamiyatni shakllantirish va uning asosida jahon yagona axborot maydoniga kirib borish natijasida milliy iqtisodimizga turli xildagi zararlarni keltirish xavfi paydo bo'lmoqda.

Hozir hujumkor axborot quroli sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: — kompyuter viruslari — ko'payish, dasturlarda o'mashish, aloqa liniyalari, ma'lumotlarni uzatish tarmoqlari bo'yicha uzatilish, boshqarish tizimlarini ishdan chiqarish va shu kabi qobiliyatlarga ega; — mantiqiy bombalar — signal bo'yicha yoki o'matilgan vaqtda harakatga keltirish maqsadida harbiy yoki fuqaro infrastrukturalariga o'matiluvchi dasturlangan qurilmalar; — telekommunikatsiya tarmoqlarida axborot almashinuvini boshqarish vositalari — davlat va harbiy boshqaruv kanallarida axborotni soxtalashtirish; — testli dasturlarni betaraflashtirish vositalari; — obyekt dasturiy ta'minotiga ayg'oqchilar tomonidan atayin kiritiluvchi turli xil xatoliklar. Universallik, maxfiylik, apparat-dasturiy amalga oshirilishining har xilligi, ta'sirining



keskinligi, qo'llanish vaqti va joyini tanlash imkoniyati, nihoyat, foydaliligi axborot qurolini haddan tashqari xavfli qiladi. Bu qurolni, masalan, intellektual mulkni himoyalash vositasiga o'xshatib niqoblash mumkin. Bundan tashqari u, hatto, urush e'lon qilmasdan hujum harakatlarini avtonom tarzda olib borish imkonini beradi

Maxfiy va qimmatbaho axborotlarga ruxsatsiz kirishdan himoyalash eng muxim vazifalardan biri sanaladi. Kompyuter egalari va foydalanuvchilarning mulki huquqlarini himoyalash - bu ishlab chiqarilayotgan axborotlarni jiddiy iqtisodiy va boshqa moddiy hamda nomoddiy zararlar keltirishi mumkin bo'lgan turli kirishlar va o'g'irlashlardan himoyalashdir.

Odatda, odamlardan yoki predmetlardan kelib chiqadigan va zarar yetkazadigan tahdidlar quyidagi sinflarga bo'linadi: ichki yoki tashqi va strukturalangan (ma'lum obyektga qarshi) yoki strukturalanmagan («kimga Xudo beradi» qabilida mojallanuvchi). Masalan, kompyuter viruslari «tashqi strukturalanmagan tahdidlar» sifatida turkumlanadi va tamomila oddiy hisoblanadi. Qizig'i shundaki, foydalanuvchilar o'z kompyuterini muayyan nishon deb, hisoblamaydi, ular o'zlarini yaxshigina himoyalangandek sezishadi. Zarur darajadagi himoya aksariyat hollarda ishning holatiga bogilq. Axborot quroli hujumda va mudofaada «elektron tezlik» bilan ishlatilishi mumkin. U eng ilg'or texnologiyalarga asoslangan bo'lib, harbiy nizolami dastlabki bosqichda hal etishni ta'minlaydi hamda umummaqsad kuchlari qoilanishini istisno qiladi. Axborot qurolini qoilanish strategiyasi hujumkor xarakterga ega. Ammo, ayniqsa, fuqarolik sektorida xususiy zaiflik nuqtayi nazari mavjud. Shu sababli bunday quroldan va axborot terrorizmidan himoyalalanish muammosi hozir birinchi o'ringa chiqqan. Foydalanuvchilari dunyo tarmoqlarida ishlashni ta'minlovchi mamlakatlarning milliy axborot resurslari zaifligi — har ikki tomon uchun xavfli holat. Dushmanlarning axborot resurslari birgalikda zaifdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'aniyev S. K., Karimov M. M., Tashev K. A. AXBOROT XAVFSIZLIGI Toshkent 07
2. S.S. Qosimov Axborot texnologiyalari xaqida o'quv qo'llanma Toshkent 07
3. G'aniyev S.K.Karimov M.M. Hisoblash tizimlari va tarmoqlarida axborot xavfsizligi TDTU 03 4. <http://www.kaspersky.ru/>
4. <http://www.viruslist.ru/>
5. http://www.citforum.ru/internet/infsecure/its2000_01.shtml/



ХАЛҚАРО АМАЛИЁТДА ИЧКИ АУДИТОРЛИК ТЕКШИРУВЛАРИНИ ЎТКАЗИШ УСЛУБИЁТИНИ ВА ИЧКИ АУДИТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ

Хамидова Сулув Янгибоевна

**Термиз агротехнологиялар ва инновацион ривожланиш институти
“Агробизнес ва бухгалтерия ҳисоби” кафедраси доценти, иқтисодиёт
фанлари номзоди**

Телефон: (+99891) 164 36 29 Hamidovasuluv_t@mail.ru

Мақолада Ўзбекистонда халқаро амалиётда ички аудиторлик текширувларини ўтказиш услубиётини ва ички аудитнинг халқаро стандартларини такомиллаштириш асослари, ҳамда олиб борилган экспоратив ва дедуктив тадқиқотлар натижасида ички аудит хизмати фаолиятида ички аудитнинг халқаро стандартларидан фойдаланиш хусусиятлари, белгиланган талабларга риоя қилиш ҳамда республикамизда амалиётга жорий этишнинг афзалликлари ўрганилган, таклифлар берилган, олиб борилган тадқиқотлар натижасида хулосалар келтирилган.

Калитли сўзлар: ички аудит, аудиторлик текширувлар, ички аудит самарадорлигини баҳолашнинг услубий асослари, аудитор малака талаблари.

ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ УСЛУГ АУДИТА И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ АУДИТА В МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКЕ

Хамидова Сулув Янгибаевна

**доцент кафедры «Агробизнес и бухгалтерский учет»,
кандидат экономических наук**

Телефон: (+99891) 1643629 Hamidovasuluv_t@mail.ru

В статье были рассмотрены вопросы основ совершенствования международных услуг аудита и международных стандартов аудита в международной практике в Узбекистане и порядок их регистрации по результатам, а также используя методы экспоративного и дедуктивного исследований, проведенных в соответствии с международными стандартами



внутреннего аудита. В результате исследования были даны рекомендации и сделаны выводы.

Ключевые слова: внутренний аудит, аудиты, методологические основы оценки эффективности внутреннего аудита, квалификационные требования ауди
**FUNDAMENTALS OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF INTERNAL
AUDIT IN INTERNATIONAL PRACTICE AND INTERNATIONAL
INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS**

The article considered the fundamentals of improving international audit services and international auditing standards in international practice in Uzbekistan and the procedure for registering them based on the results, as well as using the methods of exploitative and deductive research conducted in accordance with international standards of internal audit. As a result of the study, recommendations were made and conclusions were drawn.

Keywords: internal audit, audits, methodological basis for evaluating the effectiveness of internal audit, auditor qualification requirements.

1. Кириш.

Халқаро амалиётда ички аудиторлик текширувларини ўтказиш услубиётини ва ички аудитнинг халқаро стандартларини такомиллаштириш ҳамда ривожлантириш бўйича кўплаб тадқиқотлар олиб борилмоқда. Ушбу тадқиқотларда хўжалик юритувчи субъектларнинг ички аудит хизмати фаолиятида ички аудитнинг халқаро стандартларидан фойдаланиш хусусиятлари, белгиланган талабларга риоя қилиш ҳамда республикамизда амалиётга жорий этишнинг афзалликлари ўрганилган. Иқтисодий ривожланган давлатлар тажрибаси ва соҳадаги илмий ютуқларини таҳлил этиш шуни кўрсатадики, хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит фаолиятини мувофиқлаштирувчи меъёрий ҳужжатларни халқаро талабларга уйғунлаштириш, ички аудит институтининг фаолият самарадорлигини ошириш, самарали бошқарув тизимини шакллантириш ва инвесторларни жалб этишда ички аудит хизматининг бизнес рискларини пасайтиришга қаратилган мавқеини ошириш муҳим омил ҳисобланади.

Республикамизда амалга оширилаётган кенг қўламли ислоҳотлар ички аудитнинг назарий ва ҳуқуқий асослари, ички аудит хизматини ташкил этиш механизмларини халқаро стандартлар талаблари асосида такомиллаштириш ҳамда ички аудит самарадорлигини баҳолашнинг услубий асосларини ишлаб



чиқишни талаб қилмоқда. Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясида «халқаро тажрибани ҳисобга олган ҳолда корпоратив ҳуқуқни ривожлантириш ва корпоратив бошқарувнинг замонавий принципларини жорий этиш»[1] муҳим вазифалардан бири этиб белгиланган.

2.Адабиётлар таҳлили.

Ички аудит масаласида қуйидаги изланишлар олиб борилганини кўришимиз мумкин: Б.А.Хасанов ўз илмий изланишларида ички аудит хизматини компьютерлаштириш тизимига алоҳида тўхталиб ўтган[2] .

Н.Ф.Каримовнинг илмий ишларида тижорат банкларида ички аудитни ташкил этиш ва унинг услубиётини такомиллаштириш жиҳатлари ўрганилган[3].

Ички аудиторлар институти (The institute of internal auditors) томонидан берилган таърифга кўра «Ички аудит – бу ташкилот фаолиятини такомиллаштиришга қаратилган мустақил, холис кафолатлар ва маслаҳатлар бериш фаолиятидир. Ички аудит ташкилотга ўз фаолиятини ундаги рискларни бошқариш, назорат ҳамда корпоратив бошқарув жараёнларининг самарадорлигини баҳолаш ва яхшилашга тизимли ва изчил ёндашиш орқали амалга оширишда кўмаклашади»[4].

К.Б.Ахмеджанов томонидан хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит методологиясини такомиллаштиришнинг айрим масалалари очиб берилган. Соҳага оид кўплаб адабиётлар ва меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда ички аудит тушунчасига таърифлар ва изоҳлар берилган. К.Б.Аҳмаджонов ички аудитга шундай таъриф беради: «ички аудит – хўжалик юритувчи субъектларда молиявий-хўжалик фаолияти самарадорлигини оширишга қаратилган объектив кафолат ва маслаҳатлар берувчи мустақил тизим ҳисобланади, ички аудит бухгалтерия маълумотларининг тўғрилигини таъминлаш ва корхонада самарали ички назорат тизимини ташкил этишга йўналтирилган фаолиятдир»[5].

Илмий изланишлар жараёнида А.Тураев «ички аудит» тушунчасига муаллифлик таърифи қуйдагича берган ва унга кўра ички аудит рискларни бошқариш, ички назорат тизимларининг ишончилиги ва самарадорлигини, жумладан корпоратив бошқарув амалиётини ички назорат соҳасидаги умумқабул қилинган халқаро ва миллий стандартлар асосида мунтазам ва мустақил равишда баҳолаш учун ташкил этилган фаолият сифатида очиб берган[6].

С.У.Мехмонов ишларида бюджет ташкилотларида ички аудит методологиясини такомиллаштириш масаласига бюджет тизими нуқтаи назаридан ёндашилганлигини кўришимиз мумкин[7].



Таъкидлаш жоизки, юқорида қайд этилган илмий изланишларда айнан ички аудитнинг ҳозирги кундаги ўрни, унинг режасини тузиш, ишчи ҳужжатларини тайёрлаш, йиғма ҳисоботни тузиш, ички аудит услубиётини такомиллаштириш масалалари, ички аудиторларни халқаро даражада сертификатлаш тизими тўлиқ ўрганилмаган.

3.Тадқиқот методологияси. Тадқиқот иш жараёнида иқтисодий воқелик жараёнларини ўрганишнинг илмий усуллари–эспериментал тадқиқот, умумлаштириш, гуруҳлаштириш, таҳлилнинг мантиқий ва таққослама усуллари, абстракт-мантиқий фикрлаш, қиёсий таҳлил, статистик таҳлил, истиқболли прогнозлаш ва бошқа усуллардан фойдаланилган.

4.Таҳлил ва натижалар.

Корхона ишлаб чиқариш фаолиятини бошқариш жараёнида бошқарув қарорларининг бажарилишини таъминлаган ҳолда қўйилган мақсадга эришиш учун хўжалик юритувчи субъектлар ички аудит хизмати ҳисоботининг бир хиллиги (унификациялаш)ни таъминлаш мақсадида, муаллиф томонидан ички аудит натижаларини расмийлаштиришга оид намунавий йиғма ҳисобот шаклини жорий этиш бўйича таклиф ишлаб чиқилди(1-жадвал).

1-жадвал

**Ички аудит ҳисоботи таркибий қисмлари бўйича таклиф этилаётган
намунавий шакл**

Т/р	Таркиби	Бўлимлар	Маълумотларни очиб бериш
1.	Кириш қисми	Ички аудит режаси асосида текшириладиган бўлинма	Ички аудит режаси ва дастурини тузиш, текширишдан олдин амалга ошириладиган таҳлилий тадбирлар ишлаб чиқиш, фаолият билан дастлабки танишув, текширишда эътибор бериладиган муҳим жиҳатларни аниқлаш.
2.	Таҳлилий қисм	Тасдиқланган бизнес режанинг бажарилиш ҳолатини баҳолаш:	а) режа ва унинг амалда бажарилиши ўртасидаги фарқланиш сабабларини ўрганиш, фарқларнинг оқибатларини ҳаққоний акс эттириш, уни ўзгартириш бўйича ички аудитор фикрини билдириш, режа кўрсаткичлари ўзгаришини йиллар кесимида таҳлил қилиш ва ҳақозо;



			<p>б) маҳсулот ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш, ишлар бажариш, уларни сотиш юзасидан белгиланган кўрсаткичлар истиқбол режасини унинг прогноз кўрсаткичларини ишлаб чиқиш;</p> <p>в) корхона олаётган даромад кўрсаткичларининг бажарилиши, прогноз кўрсаткичларини ишлаб чиқиш;</p> <p>г) харажатлар таркибининг таҳлили, бунда ортиқча харажатларни қисқартириш чоралари натижасида даромадларни ошириш йўллари кўрсатиш;</p> <p>д) соф фойдадан ажратилаётган резервлар режасининг бажарилиши ва ундан фойдаланиш имкониятларини кўрсатиш.</p>
		<p>Корпоратив бошқарув принципларига риоя қилиниши ҳолатига баҳо бериш:</p>	<p>а) дивиденд тўғри ҳисобланганлиги, тақсимоти, акциялар пакетидаги ўзгаришлар таҳлили;</p> <p>б) резерв (жамғарма), ишлаб чиқаришни ривожлантириш, реконструкция ва модернизация, моддий ёрдам, Кузатув Кенгаши, ички аудит хизматига бериладиган рағбатлантириш фондлари маблағларининг мақсадли ишлатилиши ҳолатини танқидий таҳлил қилиш.</p>
		<p>Бухгалтерия ҳисоби хизматини ташкил этиш ва юритиш ҳолатини ҳамда молиявий ҳисоботдаги</p>	<p>а) бухгалтерия ҳисоби қайси дастурий таъминот асосида ташкил этилганлиги юритилиши, моддий жавобгар шахслар билан тузилган шартномалар юзасидан улар ҳисоботини тинглаш, бухгалтерия ҳисобига оид норматив ҳужжатлардаги</p>



		<p>кўрсаткичларнинг ишончилигини баҳолаш:</p>	<p>янгиликлардан доимий хабардорлик ҳолатига баҳо бериш;</p> <p>б) молиявий ҳисоботнинг ҳар бир шакл юзасидан бирламчи ва йиғма ҳужжатларнинг юритилиши ҳолатига эътибор бериш, ундаги камчиликларни бартараф этишни масъул шахслар бўйича юкланиши, ундаги кўрсаткичларнинг ўзгариши сабабларига ойдинлик киритиш, бухгалтерия ҳисоби усулларининг ўринли қўлланилиши ва ўз вақтида бажарилишини назорат қилиш ҳолатига баҳо бериш;</p> <p>в) бухгалтерия ҳисобининг барча объектлари бўйича тегишли счётларда акс эттирилаётган суммаларнинг такрорланмаётганлигини аниқлаш баробарида фирибгарлик ҳолатларини фош қилиш, улардаги дебет ва кредит оборот қолдиқларига аҳамият қаратиш;</p> <p>г) юқоридагилар юзасидан аниқланган хато ва камчиликларни бартараф этиш юзасидан ички аудиторнинг таклиф ва тавсиялари тақдим этилиши.</p>
		<p>Солиқ ва бошқа мажбурий тўловларнинг ўз вақтида, тўғри ҳисобда акс эттирилиши ва ҳисоботда қайд этилиши ҳолатига баҳо бериш:</p>	<p>а) жамият қандай турдаги солиқ ва бошқа мажбурий тўловларнинг тўловчиси эканлигига аниқлик киритиш, улар бўйича ҳисоб-китобларнинг тақдим этилиши тартибига риоя этилаётганлигига эътибор қаратиш;</p> <p>б) жамият тўлайдиган солиқ ва бошқа мажбурий тўловлар бўйича белгиланган имтиёз ва преференцияларни ўрганиш;</p>



			<p>в) жамиятнинг давлат бюджети олдидаги мажбуриятларини таҳлил қилиш, бундай мажбурият мавжудлиги аниқланганда уни бажариш чораларини кўриш.</p>
		<p>Амалга оширилган молия-хўжалик операцияларини қо-нунчилик ҳужжатлари талаблари асосида бажарилганлик ҳолатига баҳо бериш:</p>	<p>а) жамият молия-хўжалик фаолиятига тегишли амалдаги қонунчиликдаги нормативларга қанчалик риоя этилишини ўрганиш;</p> <p>б) аниқланган қонун бузилиши ҳолатлари сабабларига ойдинлик киритиш, айбдорларни аниқлаш ва қоидабузарликларни бартараф этиш ҳамда уларнинг қайта такрорланмаслиги юзасидан чоралар ишлаб чиқиш.</p>
		<p>Активлар бутлиги ва сақланиши ҳолатига баҳо бериш:</p>	<p>а) барча турдаги активлар юзасидан инвентаризациянинг ўз вақтида ўтказилаётганлигини таҳлил қилиш;</p> <p>б) моддий активларнинг яроқлилик ҳолатига баҳо бериш, улар бўйича таъмирлаш ишлари амалга оширилаётганлигини ўрганиш;</p> <p>в) активлар бўйича эскириш ҳисобланаётганлигига аҳамият қаратиш, бунда эскириш меъёрлари бузилмаганлиги ва уларнинг ҳисоб ва ҳисобот ҳужжатларида ўз вақтида қайд этилаётганлигини текшириш;</p> <p>г) эскирган активлар бўйича ҳисобдан чиқариш ишлари амалга</p>




			оширилганлигини таҳлил қилиш, уларни янгилаш юзасидан чоралар кўриш.
		Ички назорат ҳолатига баҳо бериш:	<p>а) барча жавобгарлик юклатилган бўлимлар фаолияти юзасидан тузилган шартномалар, уларнинг бажарилиши, ҳисоботларнинг тингланиши, ички буйруқ ва кўрсатмаларнинг ўз вақтида бажарилаётганлигини юрист-маслаҳатчи кўригидан ўтказиш;</p> <p>б) юқоридагилар бўйича бухгалтерия ҳисоби хизмати раҳбарининг лавозим йўриқномасидаги мажбуриятлар бажарилишини таҳлил қилиш.</p>
3.	Якуний қисм	«Корхоналардаги ички аудит хизмати тўғрисида»ги Низомда келтирилган ички аудит хизмати ҳисоботи таркибига қўйилган бандлар юзасидан ички аудит натижалари, аниқланган хато ва камчиликлар, уларни тўғрилаш бўйича ички аудиторнинг молиявий ҳолатни яхшилашга доир кўрсатмалари, таклиф ва тавсиялари келтирилиши шарт.	

(1-жадвал Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.)

Фикримизча, халқаро амалиётда кенг фойдаланилаётган халқаро ички аудит стандартларини республикамизда ҳам қабул қилиш лозим. Ўзбекистон жамоат ташкилотлари орқали Ички аудиторлар институтига аъзо бўлиш, мамлакатимизда халқаро ички аудит стандартларидан фойдаланиш имконияти яратилади. Ушбу стандартларнинг тузилиши ва қўлланилиши бўйича қуйидагилар таклиф берилди (1-расм).





1-расм. Ички аудит стандартларининг тузилиши ва қўлланилиши.

(1-расм Муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.)

Халқаро амалиётда ички аудит институти томонидан ишлаб чиқилган ички аудитнинг стандартлари қуйидаги мезонларни ўзида акс эттиради:

- сифат тавсифи стандартлари;
- фаолият стандартлари;
- амалий қўллаш стандартлари.

Илмий тадқиқотларимиз натижасида, Ўзбекистонда хорижий давлатлар амалиётида мавжуд бўлган Ички аудиторлар институти филиалини очиш орқали халқаро ички аудит стандартларидан кенг фойдаланиш имконияти яратилади



хамда ички аудит хизмати ходимларини халқаро даражада сертификатлаш тизими ва ички аудит хизмати ходимларининг малакасини хорижда ошириш имконияти кенгайди.

Биз тақлиф этаётган ички аудит стандартларининг амалиётда қўлланилиши ички аудит хизмати самарадорлигини янада оширади ва оптимал бошқарув қарорларини қабул қилишга ёрдам беради. Ички аудиторларнинг иши ўз вақтида амалга оширилишини таъминлайди ва хорижий инвесторларнинг ички аудит хизмати иши самарасига қараб, ижобий инвестиция қарорлари қабул қилишга замин яратади.

Акциядорлик жамиятида солиқ тўловлари бўйича бюджет билан ҳисоб-китобларнинг ички аудити услубиётини такомиллаштиришни кўриб чиқамиз. Бу муаммони ўрганиш жараёнида хўжалик юритувчи субъектнинг бюджетга солиқ ва бошқа мажбурий ажратмалари ҳисоб-китоби таҳлили келтириб ўтилган (2-жадвал).

2-жадвал

Акциядорлик жамиятларнинг бюджет билан ҳисоб-китоблар таҳлили

Кўрсаткичлар	2018 йил			2019 йил		
	ҳисобла н-ган	тўланг ан	Фарқ (+,-)	ҳисобла н- ган	тўланг ан	Фарқ (+,-)
Юридик шахслардан олинадиган фойда солиғи	0	5550	5550			
Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	712148	615494	-96654	1292852	1169216	-123636
Шу жумладан: шахсий жамғариб бориладиган пенсия ҳисобварақларига ажратмалар	35611	31107	-4504	61876	48218	-13658
Ободонлаштириш ва ижтимоий	-	6960	6960			



инфратузилмани ривожлантириш солиғи						
Қўшилган қиймат солиғи	10130	0	-10130	1059815	70597	-989218
Юридик шахсларнинг мол-мулкига солинадиган солиқ	41175	48020	6845	170027	72000	-98027
Бошқа солиқлар	45161	6272	-38889	145216	145216	0
Республика йўл жамғармасига мажбурий ажратмалар	386	0	-386	68251	609	-67642
Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасига мажбурий ажратмалар	288414	260161	-28253	600303	464424	-135879
Бюджетдан ташқари Умумтаълим мактаблари, касб-хунар коллежлари, академик лицейлар ва тиббиёт муассасаларини реконструкция қилиш, мукамал таъмирлаш ва жиҳозлаш жамғармасига мажбурий ажратмалар	-	-	-	24376	217	-24159
Ягона ижтимоий тўлов ва фуқароларнинг бюджетдан ташқари Пенсия жамғармасига суғурта бадаллари	959932	865015	-94917	1632190	1445561	-186629
Бюджетга тўловларнинг кечиктирилганлиги учун молиявий жазолар	359	359	0	38	38	-



Жами бюджетга тўловлар суммаси (280 дан 470 сатргача 291 сатрдан ташқари)	2057843	1807831	-250012	4993068	3367878	-	1625190
---	---------	---------	---------	---------	---------	---	---------

(2-жадвал Муаллиф томонидан «Ўзпахтасаноат» акциядорлик жамиятининг молиявий ҳисобот маълумотлари асосида ишлаб чиқилган.)

2-жадвал таҳлили маълумотларидан кўриниб турибдики, «Ўзавтотранс» акциядорлик жамияти бюджет билан ҳисоб-китоблар бўйича умумбелгиланган тартибда солиқ тўлайди. 2018 йилда жами 2 057 843 минг сўм солиқ ва бошқа мажбурий ажратмалар ҳисобланган бўлса, шундан, 1 807 831 минг сўм бюджетга тўланган ва 250 012 минг сўмлик солиқ суммалари тўланмасдан қолган, бунинг натижасида корхонага 359 минг сўм миқдорида пеня ҳисобланган ва бюджетга ундирилган.

2019 йилда эса мос равишда ушбу кўрсаткичлар 4 993 068, 3 367 878, 1 625 190 минг сўмни ташкил қилган ва ўз вақтида тўланмаганлиги учун 38 минг сўм миқдорида пеня ҳисобланган. Ички аудит текширувини ўтказишда аудитор томонидан пеня суммаларининг вужудга келиши сабаблари ўрганилиши ва жавобгар шахслар аниқланиши зарур. Ички аудит, энг аввало, солиқларнинг тўғри ҳисобланиши ва ўз вақтида тўланишини текшириши лозим.

Шуни кўрсатмоқдаки, ички аудит хизматини ташкил этиш ва унинг фаолиятини ўрганиш хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини бошқаришда ички аудит вазифаларини самарали амалга оширишда бир қанча камчилик ва нуқсонлар юзага келмоқда. Ушбу ҳолат аудит соҳасидаги меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларга ташқи аудитни ўтказишда ички аудит хизмати маълумотларидан фойдаланиш ҳақидаги нормаларга оид тегишли ўзгартиришлар киритилишини тақозо этади.

Ички аудит хизмати натижаларидан ташқи аудиторларнинг фойдаланиши аудиторлик текшируви учун сарфланадиган вақт сарфини камайтириш орқали аудиторлик ташкилотида меҳнат ресурсларига бўлган харажатларни қисқартириш, шунингдек, аудиторлик далилларнинг етарлилиги тамойили асосида қўшимча далиллар олиш имконини беради.

Хулоса ва таклиф

Ички аудит хизматининг ташкил этилиши ва уларнинг фаолиятини ўрганиш натижасида, хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятини бошқаришда ички аудит



вазифаларини амалга оширишда айрим камчилик ва нуқсонлар юзага келаётганлиги аниқланди. Ушбу камчиликларни баратараф этиш ҳамда мамлакатимиз ички аудиторлик фаолияти амалиётида уларнинг такрорланмаслиги учун фикримизча, «Ички аудит хизмати ишидан фойдаланиш» номли халқаро стандартни амалиётга жорий этиш, ички аудитни фаолият шакли сифатида қонунда мустаҳкамлаб қўйиш мақсадга мувофиқ.

Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит хизмати ҳисоботини тайёрлашда уни ўтказиш жараёнининг кетма-кетлик босқичларини тўғри тузилиши муҳим ҳисобланади, шундан келиб чиқиб тадқиқот ишида унинг шакли ишлаб чиқилди. Ички аудит хизматини ташкил этишда муаллиф томонидан таклиф қилинган ички аудитни ўтказиш босқичларини қўллаш натижасида уни ҳужжатлаштириш жараёнида ички аудитнинг режа ва дастурини ўз вақтида тузиш, ички аудит харажатлар сметасини тайёрлаш, ички аудит хизмати ходимлари лавозим йўриқномасини ишлаб чиқиш, кундалик иш жараёнларини амалга ошириш, ички аудит хизмати ҳисоботини тузиш ҳамда кузатув кенгашига тақдим этишнинг кетма-кетлик асосида бажарилиши таъминланади.

Мамлакатимизда ички аудит фаолиятини тартибга солиш мақсадида халқаро тажриба асосида ички аудит институти филиалини ташкил этиш ички аудит хизмати сифатини оширишга хизмат қилади. Ўзбекистонда ички аудит институти филиали очилиши туфайли ички аудит хизмати ходимлари халқаро даражада 3 та босқичли «Дипломли ички аудитор» (Certified Internal Auditor, CIA) сертификатини олиши ҳамда ички аудиторларнинг жамоат ташкилотлари орқали ички аудиторларни сертификатлаш тизимининг такомиллашувига эришилади.

Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит хизмати иш натижаларини расмийлаштириш учун таклиф этилган «Ички аудит хизмати ҳисоботи»нинг намунавий шакли йиғма ҳисоботнинг бир хиллигини таъминлаш имконини беради ва «Корхоналардаги ички аудит хизмати тўғрисида»ги Низомнинг такомиллашувига эришилади.

Ички аудит хизматининг хўжалик юритувчи субъектлар учун самарадорлик кўрсаткичлари тизими ва уни аниқлаш услубиёти яратилди ҳамда амалиётга қўллаш учун тавсия этилди. Бунинг натижасида кузатув кенгаши томонидан ички аудиторлар иш натижаларини баҳолаш ва назорат қилиш имконияти янада ошади.

Ички аудит стандартлари республикамизда ички аудит соҳасини ривожлантириш учун асосий меъерий-ҳуқуқий ҳужжатни ишлаб чиқишга



имконият яратади. Бунинг натижасида ички аудиторлар томонидан ички аудит стандартларининг кенг қўлланилиши амалиётдаги муаммоларнинг ўз вақтида ҳал этилиши имкони яратилади.

Тадқиқот ишида ишлаб чиқилган илмий таклиф ва амалий тавсияларнинг амалиётга жорий қилиниши хўжалик юритувчи субъектларда ички аудитни такомиллаштириш ҳамда 2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясида белгиланган вазифаларни самарали амалга оширишга хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрдаги ПФ-5544-сонли «2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида»ги Фармониغا 1-илова. (ҚХММБ, 22.09.2018 й., 06/18/5544/1951-сон; 08.03.2019 й., 06/19/5687/2723-сон).
2. Хасанов Б.А., Алибоев З.А., Зокирова М.Ш. Ички аудитни автоматлаштириш асослари.–Т.: Фан, 2003. – 160 б.
3. Каримов Н.Ф. Тижорат банкларида ички аудитни ташкил қилиш ва унинг услубиётини такомиллаштириш муаммолари. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. – Т.: 2007. – 36 б.
4. <https://global.theiia.org> – Ички аудиторлар институтининг расмий веб сайти маълумотлари.
5. Аҳмаджонов К.Б. Иқтисодиётни модернизация қилиш шароитида ички аудит методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т., 2016. – 76 б.
6. Тўраев А.Н. Хўжалик юритувчи субъектларда ички аудит хизматининг назарий ва амалий масаллари. Монография. – Т.: LESSON PRESS, 2017. – 213 б.
7. Мехмонов С.У. Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби ва ички аудит методологиясини такомиллаштириш. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. автореф. – Т.: 2018. – 76 б.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2006 йил 16 октябрдаги 215-сон қарори билан тасдиқланган «Қорхоналардаги ички аудит хизмати тўғрисида Низом». – Т.: Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2006. 42 (230)-сон.





9. Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоялаш тўғрисида”ги Қонуни. Янги таҳрири. Тошкент ш. 2014 йил 6 май, ЎРҚ-370-сон

10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 27-сон, 329-модда.



O'QITUVCHILARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH TEXNOLOGIYALARI.

Buxoro davlat pedagogika instituti Dotsenti:

Nusratov A.N

OXU II bosqich pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti:

Halimova Nozigul Navro'zovna

Annotatsiya: Ushbu tezisimizda mamlakatimizda o'z faoliyatini yuritayotgan va bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, Texnologiya, Innovatsion tayyorlash mexanizmi

Asosiy qism: Hozirgi davr mamlakatimizda bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Texnologiya- innovatsion texnologiyaning ilmiy aspektini belgilash uchun ishlatiladi. Bu texnik va inson resurslarini hamda ularni o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi hamkorligini hisobga olgan holda, dars berish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli usuli.

«Innovatsion texnologiya- bu o'qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir»

Innovatsiya – bu u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish maqsadida yangi texnika-texnologiyalarni yaratish, ish faoliyatni boshqarishning takomillashgan usul va shakllarini ishlab chiqish hamda ularni joriy etishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyat natijasi. Innovatsiyalar u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun inson aqli erishgan yutuqlardan (kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari va hokazo) foydalanishni anglatar ekan, mos ravishda innovatsiyalar texnologik, iqtisodiy, ekologik, boshqaruv, harbiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, huquqiy va boshqa turlarga taqsimlanadi. Innovatsiyalar dunyosi inson faoliyati sohalari kabi rang-barang va turli-tuman ko'rinishga ega. Innovatsiyalarning qudrati jamiyat turmush tarzi, salomatligini himoyalash, ilmiy salohiyatini oshirishda katta imkoniyatlarni taqdim etadi.



Xulosa: Texnologiya fani darslarida hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini bosqichlari va vazifalari. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari hamkorlik pedagogikasi asosida shakllangan bo'lar ekan. U an'anaviy pedagogikadan quyidagicha farqlanib, barchasi innovatsion faoliyatni yaxshilashga qaratilgan ishlar jamlanmasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shomirzayev M. X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogic texnologiyalar. Darslik.. –T.: “TerDU nashr-matbaa markazi”, 2020. – 226 b.
2. Shomirzayev. M. X. Texnologiya fanini o'qitishning samaradorligini oshirish yo'llari. O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. –T.: 2019. – 72 b
3. O'qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi zuxriddinbekjon@umail.uz



BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK TIZIMI.

OXU II bosqich magistranti:
Orziyeva Muqaddas Saidovna

Annotatsiya: Ushbu tezisimizda Olimlarning kasbiy tayyorlash to'g'risidagi fikrlari, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari va kasbiy tayyorlash omillari va shart-sharoitlari haqida ma'lumot berishdir.

Kalit so'zlar: Psixologiya, Pedagogika, Mutaxassislik, Ta'lim, Tarbiya.

Asosiy qism: Kasb tushunchasi - bu maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan o'tgazuvchi va unga yashash uchun manba bo'lib xizmat qiluvchi mashg'ulotdir. Kasb bir xil faoliyat bilan shug'ullanuvchi kishilarni birlashtiradi va bu faoliyat ichida ma'lum aloqalar va axloq normalari o'rnatiladi.

Tadqiqot muammosini nazariy jihatdan o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy dolzarbligini ahamiyatli tushunchalar, kategoriyalar mazmunini yoritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bois, ilmiy izlanishlar davomida kasbiy moslashtirishning pedagogik-psixologik aspektlarini: motiv, kasb tanlash motivlari, kasbiy yo'nalganlik, pedagogik kasbga yo'nalganlik, pedagogik faoliyat, kasbiy bilim ko'nikma va malakalar, kompetentlik kabi tushunchalarning mohiyati aniqlashtirish orqali yoritishga harakat qilingan.

Kasbiy tayyorgarlik - maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarni o'zlashtirish asosida shaxsning kasbiy faoliyatni olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi. Kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish - DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo'lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni mavaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorlanish jarayonidir. Kasbiy tayyorlash - bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyat talablarni o'zlashtirish, individuallasuvi demakdir.

Ma'lumki, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish aniq maqsadga yo'naltirilgan, tizimli jarayon hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy moslashtirish jarayonining bosqichlarini turlicha tavsiflanadi.



Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy moslashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarda kechishi aniqlandi: 1-bosqich. Kasbiy faoliyatga motivatsion yo'nalganlik 2-bosqich. Kasbiy faoliyat talablarini o'zlashtirish 3-bosqich. Kasbiy o'z-o'zini anglash, moslashish

Xulosa: Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash va moslashtirish katta ahamiyatga ega. Chunki pedagoglarning mashaqqatli mehnatlari orqali jamiyat rivojlanadi. O'sib kelayotgan yosh avlod komil inson bo'lib yetishadi. Shuning uchun har bir pedagog o'z kasbiga sidqidildan yondashish kerak. Kasbiga hurmat, tinimsiz izlanish, jamiyat rivojiga hissa qo'shish har bir insonning muqaddas burchi sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ishmuhamedov R. Va boshq.Ta'limda innovatsion texnologiyalar, - T.: "Iste'dod" jamg'armasi.2008.-B.16-18
- 2.Eganberdiyeva N.M. Va boshq.Yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishning tarbiya texnologiyasi. – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2012-B201-202.
- 3.oqituvchilarni pedagog kasb faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari. Zamira Imomaliyevna Olimova



O'QUVCHILARNI SINIF VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLARGA RAHBARLIK QILISHNI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK USULLARI.

OXU II bosqich pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti:

Sayfilloyev Abror Akram o'g'li

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabda ta'lim oluvchi o'quvchilarning maktabdan tashqari ishlarga jalb qilish, tashkil qilish bosqichlari, turlari va bu ishga rahbarlik qilayotgan ishchi hodimning vazifalari va majburiyatlari qisqacha yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sinfdagi dars tizimi, o'quvchining nutq odobi, o'quvchining kolleksiya qilish mahorati, konsepsiya.

Asosiy qism: Mazkur ta'limotga asosan maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish va uning amalga oshirilishiga rahbarlik hamda nazoratni uyushtirib borish maktab ichki boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning umummaktab rejasini ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari rahbarligida, sinf rahbarlari, metodik birlashmasi, tajribali o'qituvchilar, maktab kutubxonasi, o'quvchi- yoshlar tashkiloti, o'quvchilar uyushmasi, ota-onalar qo'mi- tasi hamda to'garak rahbarlarining faol ishtirokida tuzish hamda uni maktabning yig'ilishida muhokamadan o'tkazib tasdiqlash maqsadga muvofiqdir. Direktor o'qituvchilar, sinf rahbarlari, tarbiyachilar va o'quvchilarga nisbatan tutgan tizimida birlik bo'lishiga erishadi, maktabning oila, kattalarning mehnat jamoalari, jamoat tashkilotchilari bilan uzviy hamkorlik qilishiga intiladi. Maktabning tarbiyaviy jarayoniga rahbarlik qilishda direktor boshlang'ich va o'quv sinflar tarbiyaviy ishida izchillikka rioya qilishga alohida e'tibor beradi, bu bilan ta'lim jarayonida ham, Shuningdek, darsdan tashqari vaqtda ham tarbiyaning uzluksiz- lik tamoyillarini amalga oshiradi. Sinf rahbarining tarbiyaviy ish rejasi — bu majburiy peda- gogik hujjatdir. Ish reja choraklik, yarim yillik va bir yillik tuzilishi mumkin. Hozirgi sharoitda tajribalarning ko'rsatishiga binoan yarim yillik rejasidan foydalanish ancha samara bermoqda. Rejalashtirishda quyidagilar nazarda tutilsa, uning samarasi ancha oshadi: Reja mahalliy sharoitga qarab, maktabning joylashgan o'rne, albatta, o'quvchilarning saviyasi, yoshiga qarab mumkin qadar mos tuzilishi kerak. Reja muayyan maqsadga qaratilishi va real (aniq) bo'lishi zarur. Bolalar va o'smirlar uyushmasi bilan kelishilishi lozim. Rejada o'quvchilarning kuzgi, qishki, bahorgi va yozgi ta'tillarida qiladigan ishlari aks etishi kerak. O'tkaziladigan



tadbirlarning bajaruvchi shaxslari, muddati va bajarilishi, turi aniq ko'rsatilishi lozim. Reja maktab direktori o'rinbosarlari tomonidan ko'rib, direktor tomonidan tasdiqlanishi shart. Rejalashtirishda sinf rahbarining pedagogik tayyorgarligi, tajriba va shaxsiy xususiyatlari juda katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning sharqona milliy urf-odat, an'analar haqidagi bilim darajasi. qomusiy ma'rifatparvar, mutafakkirlar hamda hozirgi zamon shoir, yozuvchilarning ijodiyotidan namuna bilishlari. yuqoridagilarni aniqlashda suhbat, anketa usullaridan foydalanish o'rinlidir. shundagina har bir o'qituvchi-tarbiyachilarning betakror, bir-biriga o'xshamagan tarbiyaviy tadbir rejaları bunyodga keladi. bunday rejalar tarbiyaviy ta'sirga ega bo'lib, ko'zlangan maqsadga erishtira oladi.

вычислительной техники Нукусского филиала Ташкентского
университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразми
ПРОБЛЕМЫ БЕЗОПАСНОСТИ ИСТОЧНИКОВ ИНФОРМАЦИИ,
ХРАНИМЫХ В ИНТЕРНЕТЕ**

Аннотация: В данной статье говорится об обеспечении безопасности информации, товаров, материальных ценностей и других услуг, хранящихся в системе Интернет, а также о реализации дистанционной связи и использовании других возможностей.

Ключевые слова: интернет, информация, система, шифрование, симметричный, метод, криптография.

Осуществление финансовых операций через интернет-систему, заказ товаров, товаров и услуг, с использованием пластиковых карт, дистанционной связи и использование других возможностей, в свою очередь, требует обеспечения информационной безопасности. Любая информация, распространяемая через Интернет-систему, всегда проходит через несколько маршрутов и серверов и достигает нужного пункта назначения. В этих областях могут возникать различные внешние угрозы целостности и целостности информации в системе. В целом система Интернета должна обеспечивать возможность неограниченного доступа к любому источнику информации. Проблема информационной безопасности приводит к системе ограничений на использование информации. Однако с помощью методов криптографии можно защитить пользователя, не ограничивая возможности. Криптографические методы основаны на алгоритме шифрования для обеспечения конфиденциальности информации. Но для возврата в исходное состояние нужен ключ для определения алгоритма шифрования. Таким образом, алгоритм и ключ являются базовой концепцией криптографии. Алгоритмы симметричного шифрования считаются неподходящими для пользователей. Основой информационной безопасности является уровень конфиденциальности симметричных ключей. Уровень безопасности оценивается количеством вариантов ключа для данного алгоритма шифрования. До сих пор очевидны некоторые недостатки шифрования с использованием симметричного закрытого ключа. Сложности возникают при генерации, хранении и доставке ключей для отправителя и получателя информации при сохранении конфиденциальности. Например, поскольку в банковской системе большое количество финансовых



клиентов, обеспечить каждого из них отдельным секретным ключом практически невозможно. Поэтому становятся известны преимущества асимметричного ключа в обеспечении информационной безопасности. В методе асимметричного ключа отправитель информации шифрует информацию с помощью открытого ключа, а получатель расшифровывает файл с помощью закрытого ключа (открывает скрытую информацию). В настоящее время широко используется свободный от недостатков симметричного метода шифрования метод шифрования на основе асимметричных ключей RSA, открытый американскими учеными Р. Ривестом, А. Шамиром и Л. Адельманом. Секретность электронной подписи, широко используемой в банковской системе, возлагается на методы, близкие к методу RSA.

Алгоритм генерации RSA-ключа:

1. Выбираются неравные друг другу простые числа;
2. $n=p*q$ — модуль;
3. вычисляется $\phi=(p-1)(q-1)$;
4. $1 < d < n$ определено, если оно удовлетворяет неравенству и является обратным радикалом с номером n ;
5. Выбирается скрытое число d ($d*e \bmod \phi=1$), удовлетворяющее уравнению; Таким образом, мы создали пару (e, g) - открытый и (d, g) - закрытый ключи.

Шифрование и дешифрование RSA. Чтобы зашифровать текст (e, g) с помощью открытого ключа:

- разбиваем зашифрованный текст на блоки $M(i) = 0,1,2,\dots,n-1$;
- шифруем фрагмент текста $M(i)$ по формуле $C(i)=(M(i)e) \bmod n$;
- создаем исходный текст, расшифровывая фрагмент зашифрованного текста $C(i)$ с помощью закрытого ключа (d, g) по формуле $M(i)=(C(i) d) \bmod n$.
- Открыть закрытый ключ становится неразрешимой проблемой:
- 1. Необходимо выбрать два очень больших простых числа (например, по 1024 бита каждое), не слишком далеко и не слишком близко друг к другу;
- 2. Наибольшие общие делители числа $(p-1)(q-1)$ и $(\#-1)(\#-1)$ должны быть как можно ближе друг к другу;
- 3. Простые числа Ферма обычно принимают за число e : 17, 257, 65537, ...;
- 4. Закрытый ключ должен храниться в секрете. Упражнение 1.
- мы можем выбрать числа $p=3$ и $q=11$; • $n= 3 \cdot 11=33$;
- $\phi=(p-1)(q-1)=20$. Так, по условию, например, $e=7$;



- Если мы удовлетворяем условию $(d-1) \bmod 20=1$, будет сгенерировано $d=3$ числа;
- Пронумеруем буквы латинского алфавита в порядке от 0 до 26: A=1, V=2, S=3;
- шифруем текст открытым (7.33) ключом; . $C(1) = (37) \bmod 33 = 2187 \bmod 33 = 9$;
- $C(2) = (17) \bmod 33 = 1 \bmod 33 = 1$; . $C(3) = (27) \bmod 33 = 128 \bmod 33 = 29$
- Расшифровать с помощью закрытого (3.33) ключа: . $M(1) = (93) \bmod 33 = 729 \bmod 33 = 3+S$;
- $M(2) = (13) \bmod 33 = 1 \bmod 33 = 1 \rightarrow A$; . $M(3) = (293) \bmod 33 = 24389 \bmod 33 = 2+V$. В 1977 году известный писатель и энтузиаст точных наук Мартин Гарднер опубликовал в журнале Scientific American интересный математический трактат под названием «Совершенно новый код, на решение которого уйдет миллион лет». Показывая метод шифрования, он также указал значение n для открытого ключа: $n = 114\ 381\ 625\ 757\ 888\ 867\ 669\ 235\ 779\ 976\ 146\ 612\ 010\ 218\ 296\ 721\ 242\ 362\ 562\ 561\ 842\ 935\ 706\ 935\ 2\ 4\ 5\ 733\ 897\ 830\ 597\ 123\ 563\ 958\ 705\ 058\ 989\ 075\ 147\ 599\ 290\ 026\ 879\ 543\ 541$. Он пообещал денежное вознаграждение людям, которые разделят число n на простые числа. С дополнительными вопросами могут обращаться сотрудники Массачусетского технологического института Р. Ривест, А. Шамир и Л. Адельман. n опубликовал и ключ, и зашифрованный текст. 600 человек должны были работать вместе в течение 17 лет, чтобы решить эту проблему. В результате $p = 32\ 769\ 132\ 993\ 266\ 709\ 549\ 961\ 988\ 190\ 834\ 461\ 413\ 177\ 642\ 967\ 992\ 942\ 539\ 798\ 288\ 533$ $q = 3\ 490\ 529\ 510\ 847\ 650\ 949\ 147\ 849\ 619\ 903\ 898\ 133\ 417\ 764\ 638\ 493\ 387\ 843\ 990\ 820$ Было определено 577 номеров и раскрыт код. Таким образом, было доказано, что метод RSA обладает беспрецедентной криптографической целостностью. Выше использовались 64- и 65-значные простые числа. Поэтому только при работе с очень большими числами приоритет метода RSA при создании электронной цифровой подписи высок.

Электронная цифровая подпись (ЭЦП) создается в результате специального изменения информации электронного документа в электронном документе с использованием закрытого ключа ЭДО и заключается в определении отсутствия ошибок в информации электронного документа с использованием открытого ключа ЭДО.



[Электронная цифровая подпись (ЭОД) — это подпись, которая позволяет идентифицировать владельца закрытого ключа.

Бумажная подпись имеет такое же значение, как и личная подпись на бумажном документе, при соблюдении условий, требуемых Законом о ERI. Данные ERI представляют собой упорядоченную последовательность символов, сгенерированную в результате криптографического преобразования. Любой документ, циркулирующий в интернет-системе ERI, может иметь возможность нарушить целостность изображения или изменить его содержание. В настоящее время такой риск особенно опасен для уведомления о финансовых платежах в банковской системе. Потому что изменение адреса или суммы денег на счете носит временный характер *noxush voqealarga olib kelishi muqarrar* Для получения ЭРИ необходимо обратиться в орган государственной службы при Министерстве юстиции Республики Узбекистан, заполнить заявление в установленном порядке и зарегистрировать его. Выдается сроком на один год с момента регистрации и срок действия продлевается по договоренности.

В методе асимметричного ключа отправитель шифрует данные с помощью открытого ключа, а получатель шифрует файл с помощью закрытого ключа.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. В.П. Базы данных. Книга 2 распределенные и удаленные базы данных: учебник.// Москва ИД «ФОРУМ» - ИНФРА- М. -2018. - С 261.
2. Голицына О.Л. Базы данных: учеб. Пособие // - 4-е изд., иерераб. И доп. — М.: ФОРУМ: ИНФРА-М, 2018. —400 с.
3. Мартишин С.А. Базы данных. Практическое применение СУБД SQL -и NoSQL — типа для проектирования информационных систем: учеб. Пособие // - Москва: ИД «ФОРУМ» - ИНФРА-М, 2019, - 368 с.
4. Rahul Batra. SQL Primer An Accelerated introduction to SQL Basics. / Gurgaon, India. 2019. -P 194.
5. Ноликов А.М. Безопасность Oracle глазами аудитория: нападение и чатцита. -Москва. 2017. -336 с.
6. Usmonov J.T., Xujaqulov T. A. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi/ o'quv qo'llanma. - T. : Aloqachi, 20! 8. - 96 b.
7. Usmonov J. T., Xujaqulov T. A. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi fanidan labomloriya ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma - T. : TATU. 2016. - 55 b.
8. Eric Redmond, Jim R. Wilson. A Guide to Modern Databases and the NoSQL Movemen AQSH, 2015. - 347 с.



KOXLEAR IMPLANTATSIYA

Akramova Muhlisa

JDPU Pedagogika psixologiya fakulteti

Surdopedagogika yo'nalishi 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada surdotexnika va surdopedagogika fanlarining rivojlanishi hamda innovatsion texnologiyalarning amaliyotda qo'llanilishi natijasida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun yangi ko'p kanalli koxlear implantatsiya vositasi va uning keng imkoniyatlaridan foydalanish haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: koxlear implantatsiya (CI), ichki quloq, o'rta quloq, nutq, eshitishda nuqsoni bo'lgan bola, ko'p kanalli implant, eshitish nervi, nutq protsessori, elektrod, mikrafon.

Koxlear implantatsiya deganda, ichki quloqqa eshitish nervining afferent tolalarini bevosita elektrostimulyatsiya qilish yo'li bilan eshitish sezgisini tiklash maqsadida elektrodlar tizimini joylash tushuniladi. Bu ikki komponent tovushlarni aniqlash uchun mikrofon, nutq protsessori, uzatuvchi va qabul qilgich va elektrodlar massividan iborat. Birgalikda komponentlar tashqi tovushlarni aniqlash, bu tovushlarni qayta ishlash va nutqni talqin qilish, tovushlarni uzatish va yashirish, impulslarni yig'ish va eshitish nerviga yo'naltirish vazifasini bajaradi. Bemorlarga ichki quloqdagi nervlarni qo'zg'atib, tovush tuyg'usini beradi.

1970 va 1980-yillardagi implantlarning dastlabki kunlaridan boshlab implant orqali nutqni idrok etish doimiy ravishda o'sib bordi. Qo'shma Shtatlarda 200 000 dan ortiq odam 2019-yilgacha CI olgan. Zamonaviy implantlarning ko'p foydalanuvchilari implantatsiyadan so'ng yaxshi eshitish va nutqni idrok etish qobiliyatiga ega bo'lishadi. Ushbu implantlar bilan bog'liq muammolardan biri implantatsiyadan so'ng eshitish va nutqni tushunish qobiliyatlari individual implant foydalanuvchilari orasida keng ko'lamli o'zgarishlarni ko'rsatishidir. Implantatsiya yoshi, ota-onalarning ishtiroki va ta'lim darajasi, eshitish qobiliyatini yo'qotishning davomiyligi va sabablari, implantning kokleada qanday joylashishi, koxlear asabning umumiy salomatligi, shuningdek, bu o'zgarish qayta o'rganishning individual imkoniyatlari kabi omillar bo'ladi

Qadimda eshitmaydigan insonlar so'zlash imkoniyatiga ham ega bo'lishmagan. Ushbu mo'jizaviy qurulma bundan 40 yillar muqaddam Fransiyada paydo bo'lgan. Past eshituvchi kishining o'rta qulog'ini operatsiya qilganda, shilliq o'ramasiga ta'minot blokiga ulangan elektrod tasodifan tegib ketadi va mijoz o'zining qulog'ini avvalgidan ko'ra yaxshiroq eshityapti, deb his qiladi. Shifokorlar bu hodisani sinchiklab o'rgana



boshladilar, shu tarzda eshitishda nuqsoni bo'lgan kishlarning nutqni his qilishlarini yaxshilash imkonini beruvchi yangi yo'nalish paydo bo'ldi. 1790-yilda taniqli fizik olim Alessandro Volta eshitish tizimining elektr stimulyatsiyasi tovush sezilishiga olib kelishi mumkinligini aniqladi. U quloqlariga metall simlarni bog'lab, ularni 50 voltli elektr pallasiga uladi. hunda u quloqlarida qaynayotgan suv tovushini sezdi. Asta-sekin, olimlar elektr energiyasidan foydalangan holda ovozni kuchaytirish muammosi bilan shug'ullana boshladilar.

Birinchi marta eshitish nervlarini elektrodlar bilan to'g'ridan-to'g'ri stimulyatsiya qilish 1950-yilda frantsuz va jazoir olimlari Andre Jiurno va Sharl Irey tomonidan amalga oshirildi. Keyinchalik 1952-yilda Fransiyada o'tkazilgan muvaffaqiyatli jarrohlik amaliyoti uning yanada rivoj topishiga sabab bo'ldi. Ish paytida ular eshitish nervlariga simlar ulab, ularga elektr to'kini ulashdi. Natijada, bemorlar g'ildirak shovqini yoki qisirlagan tovushni his qilishdi. Melburn universitetining olimi (Avstraliya) Grem Klark 1970-yillarda sun'iy quloq apparatini yaratishni boshlaydi va bu moslamani kar otasida sinab ko'radi.

Ushbu apparat allaqachon ichki quloqning chig'anog'ini turli nuqtalardan turib qo'zg'ata olgan. 1978-yil 1-avgustda ko'p kanalli koxlear implant birinchi marta Melburnda yashovchi Rod Saundersga joylashtirildi. 1984-yil dekabr oyida Amerika oziq-ovqat va dorilar boshqarmasi (FDA) AQShda Avstraliyadagi koxlear implantlardan foydalanishni tasdiqladi. 1990 yilda FDA implantlarning yoshini dastlab 2 yoshga, keyin 1998- yilda 18 oyga va nihoyat 2002 yilda 12 oyga qisqartirdi.

3000 ga yaqin operatsiya, shu jumladan 1600 bolalarda amalga oshirildi. 2004-yilda Germaniyada ushbu operatsiyani o'tkazgan eng yosh bemor atigi 5 oylik edi. Sobiq Sovet ittifoqida ko'p kanalli koxlear implantatsiyadan foydalanishning boshlanishi 1991-yilda, Avstraliyaning Cochlear kompaniyasining professori Ernst Lenhardt va doktor Monika Lenhardtlar hamkorligida birinchi ikkita koxlear implantatsiyani amalga oshirdilar. Uchinchi operatsiya 1992-yilda amalga oshirildi.

Bugungi kunda total karlik va sensonevral eshitmaslikning yuqori darajasidagi kishilar uchun koxlear implantant eshitish protezining real vositasi bo'lib bormoqda. Eng ko'p tarqalgan koxlear implantant sistemalaridan biri bu- Cochlear firmasi tomonidan tarqatilayotgan 22 kanalli Nucleus koxlear implantanti hisoblanadi.

Turli kishilarda eshitish nervining elektr stimulyatsiyasi natijasida turlicha (his) sezgilar bo'lishi mumkin. Shuning uchun, bir kishida turli kanallarni stimulyatsiya qilishda yoki bir kanalni turli kishilarda stimulyatsiya qilishda stimulyatsiya qiluvchi tokning turlicha kuchlaridan foydalanish zarur. Bundan tashqari, aynan bir kishining turli kanallarning stimulyatsiya qilinishida ovozning turli tonlarini individual ajratish



qobiliyati mavjud. Shu maqsadda nutq protessorida nozik sozlama ko'zda tutilgan bo'lib, mijozning elektr stimolni qabul qilishiga qarab individual holatda sozlanadi.

Yuqorida sanab otilgan koxlear implant moslamasining fiziko texnik imkoniyatlari orqali eshitish sezgisini tiklash insonga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

-meyoriy eshitishga nisbatan 40 dB gacha bo'lgan eshitish sezgisi tiklanadi;

-atrofda uchraydigan kundalik nonutqiy tovushlarni eshitib farqlash darajasi oshadi;

-nutqiy tovushlarni eshitish orqali insonning eshituvchilar olamiga samarali kirib borishi ta'minlanadi;

-koxlear implantli bolalar va kattalar eshitish evaziga suhbatdoshining nutqini tushuna boshlaydilar.

Implantning eshitish vositasidan farqi shundaki, eshitish apparati tovushlarni kuchaytiradi, implant esa tovushni aniqlash va talqin qilishga yordam beradi. Koxlear implant oddiy eshitishdan farq qilsa-da, u odamlarga suhbatni yaxshiroq tushunishga va ogohlantirish signallarini tan olishga imkon beradi. Ba'zi bemorlar uchun implant tovush va nutq talqinini yaxshilashi mumkin, shunda ular endi lab o'qishni yoki imoshora tilini talab qilmasligi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ayupova M. Yu. Logopediya. –T: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
2. Mamarajabova Z. N. Surdopedagogika. T: 2017.
3. Mamarajabova Z. N. Koxlear implantli va eshitish moslamalari o'rnatilgan bolalar eshituv-nutqiy rehabilitatsiyasi dasturiga oid qo'llanma. T: 2019.



YANGI O'ZBEKISTONDA OILA VA XOTIN – QIZLARGA E'TIBORNING IJTIMOIY MOHIYATI

Abdusattorova Visola Abdulazizovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim fakulteti

3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jamiyatda ayollar ta'limi qay darajada, ayollar uchun yuksalish yo'lida kerak bo'ladigan zarur maslahatlar, o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'ygan qizlar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ayollar ta'limii, innovatsiya, jamiyat, hulq – atvor, ma'naviyat, internet, bilimli ayol, balog'at yoshi.

Ayollar ta'limi jamiyatning ilmlilik darajasini belgilaydi. Ayol bu - ona, qiz, rafiqa, opa va singil, qisqa qilib ayollar desak, ayollarning oilada o'rni beqiyos, jamiyatda ham xuddi shunday bo'lishi kerak, jamiyat esa oiladan boshlanadi. Ulug'larimizning bir aytgan fikrlari menga juda yoqdi: o'g'il bolani o'qitsang bir shaxsni ilmi qilgan bo'lasan, qiz bolani o'qitsang butun bir jamiyatni ilmi qilgan bo'lasan. Chunki ayol bu-ona, yuqorida aytganimizdek oilada o'rni beqiyos. Farzandlarini jamiyatga shaxs sifatida yetkazib beradigan inson. Ilmi ona esa farzandlariga ham ilmning, bilimning, kitobning qadr qimmatini to'g'ri anglatib, singdira oladi. Mening fikrimcha ilmi ayol ilm o'rgangani uchun, o'qigani uchun, bilgani uchun jamiyatda o'z haq huquqini, qadr qimmatini biladi va kerak bo'lgan vaziyatda talab ham qila oladi.

Oddiy bir misol: ilm fan, ta'limi rivojlanmagan Afg'oniston davlatini olsak, ayollarning hech qanday haq –huquqi yo'q, ularga xuddi buyumdek munosabatda bo'lishadi, aslida esa dunyoga kelsan har qanday inson e'zozlanishi kerak, ayniqsa u ayollar bo'lsa. To'g'ri, buning uchun ayolning o'zi ham harakat qilishi kerak, uyda ayol ya'ni ona farzandlarining har bir bergan savoliga javob bera olishi, ularni ilmga, istiqbolli ta'limiga va o'zlari qiziqqan har qanday sohaga to'g'ri yo'naltira olishi kerak, buning uchun esa o'zi ilmi bo'lishi kerak albatta.

O'g'il uylantirayotgan aksariyat oilalar ham hozir qiz bola o'qigan bo'lsa, yaxshi bo'lar edi deb, fikr bildirishyapti lekin, odamlar og'zida: “Qiz bola o'qiyman desa, o'qib shahar olib berarmidi, erta turmushga chiqib ketadi, foydasi tegarmidi?”-deb, fikr yuritayotganlar ham bor, bu noto'g'ri. Jamiyatda madaniyaniyatning qay darajadaligi menimcha, ayollarga bo'lgan munosabat bilan belgilanadi. Har qanday ayol xoh u ona bo'lsin xoh rafiqa, kim bo'lishidan qat'iy nazar barcha ayollar fidoyilikni tushunibgina



qolmay, o'zini fido qilishni ham biladi. Buyuk bir adib aytganidek "Qiz bolani hurmat qil, uning nomusi va sharafini, insoniy g'ururini avayla. Senga yoqqan qiz- sening bo'lajak rafiqang, bolalaringning onasi. U-barhayotligingning garovi, u seni bolalaring qiyofasida yana qayta dunyoga keltiradi".

Hozirgi rivojlanayotgan zamonda, qizlarning o'zlariga, o'z qarashlariga, o'z g'ururlariga, o'z shaxsiyatlariga katta hurmat bilan yondoshishni o'rgatmoq zarur deb, o'ylayman. Tabiat ayolga shunday deydi: uddasidan chiqsang go'zal bo'l, xohlasang oqila bo'l, ammo idrokli bo'lmog'ing shart. V. A. Suxomlinskiyning fikricha "Qayerda ayollar, qizlar, qattiqqo'l, talabchan bo'lsalar, o'sha yerda o'smirlar haqiqiy erkak bo'lib yetishadilar". Darhaqiqat, yuqorida keltirganimizdek o'z farzandlarini kelajakka ma'nan yetuk va tarbiyali, idrokli, ilimli va bilimli shaxs qilib yetkazib beradiganlar, bu ayollar, onalar hisoblanadi.

To'g'ri o'gil farzandning tarbiyasiga ko'proq otalar mas'ul bo'lishadi, ammo onalarimiz o'z farzandlari bilan ko'proq vaqt o'tkazishadi va ularning nimalarga qiziqishini, qanday mashg'ulotlarni yaxshi ko'rishini, va kelajakda kim bo'lmoqchiligini otalaridanda ko'proq bilishadi va farzandlarini iloji boricha o'zlari qiziqqan yo'nalishlari bo'ylab to'g'ri yo'lga yo'naltirishga harakat qilishadi. O'z farzandi qanchalik jamiyatga foydasi tegadigan inson bo'lsa, jamiyatda o'z o'rnini topsa va yutuqlari bilan barchaning nazariga tushsa, biror bir kasbning etagidan tutib, yaxshi lavozimlarda ishlasa, to'g'ri yo'ldan yurib, odamlarga foydasi tegsa, ota-ona uchun ana shu eng katta baxt. A.A.Fadeyev aytganidek "Bukilmas qat'iy prinsipiialligini ko'z-ko'z qilmaydigan, nima ish qilsa ham o'ziga yarashadigan kamtar va iffatli ayollardan go'zalroq nima bor? Hozirgi zamonda oddiy bir haqiqat bor – inson qanchalik ko'p bilsa, u shu qadar kuchli bo'ladi.

Bugungi kunda har daqiqada rivojlanayotgan va yangilanayotgan zamonda biz ayollarning asosiy vazifasi o'qish va uqish, imkoni boricha ko'proq bilimga ega bo'lish uchun intilishdir, chunki jiddiy ijtimoiy yo'nalishlar- bilim bor yerda, insoniyatning istiqbol baxti ham faqat bilimdadur. Bilim manbai behad: insoniyat bu yo'lda qanchalik yutuqlarga erishmasin, barcha odamlarning izlanishi, kashfi, va bilimi uchun o'rin topiladi. Ma'lumki, feodalizm davrida xotin-qizlar tahqirlangan, ezilgan, ularning insoniy huquqlari poymol etilgan. Shariatga tish- tirnog'i bilan yopishib olgan ekspluatatorlar sinfining vakillari hamda ruhoniylar xotin – qizlarni kamsituvchi maqollar "ijod" qilganlar. Misol uchun, "Oltin boshli xotindan taqir boshli er ortiq" (taqir – mis): "Xotinning sochi uzun, aqli qisqa", "Xotin degan erdan to'rt enlik pastda yurishi kerak" va shu kabilar.



Ammo xalq ommasining ilg'or dunyoqarashli vakillari hayotning past- balandini aql tarozisiga solib, xotin – qizlar ham chin inson ekanligini, ular oilaviy hayotda ham, jamiyatda ham muhim o'rin tutishlarini ta'kidlaganlar, ayollarning yuksak insoniy fazilatlarini madh etganlar, ularni sevish, qadrlash, hurmat qilish zarurligini uqtirganlar. Biz faxr va iftixor bilan “sog'lom avlod”, “barkamol avlod” deb, atagan sog'lom nasl, jismonan baquvvat, ruhi-fikri tiniq, iymon e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodning teng yarmini biz, ya'ni ayol, qizlar tashkil etadi. Ertaga biz, ayol, ona bo'lamiz.

Ayolning tom ma'nodagi ayol, ota – bobolarimiz aytmoqchi “risoladagidek ayol” bo'lish uchun uning shakllanish, ya'ni qiz bolalik davri tarbiyasiga katta ahamiyat berish kerak, aynan shu davrda qiz bolaning ko'ziga mumkin qadar ko'proq atrof-muhitni ko'rsatib, fikr qilishga o'rgatish, “qulog'iga ko'proq narsa quyish” kerak degan fikr va ishonch g'ayratimizga g'ayrat, idrokimizga idrok berib turdi. Aksariyat xolalar, buvilar, ammalar shunday fikrdalar.

Biz bizdan so'ng ham yana ko'p-ko'p yillarga yetkazuvchi, avlodlar zanjirini bog'lovchimiz. Yer yuzidagi barcha go'zallik – quyoshdan, barcha yaxshilik insondan, deyishgan donishmandlar. Shu sababli dunyodagi barcha olim-u fuzalolar hayotning asl maqsadi insonning hamisha kamolot sari intilishidadur, deb ishonganlar. Hozirgi zamonning yosh, navqiron va endigina balog'at yoshiga qadam qo'yayotgan qizlariga bir maslahat: ilm, bilim olish, yaxshi bir kasbni egallab, jamiyatga foydasi tegadigan inson bo'lishdan tashqari ayollarning, ya'ni bizning ham yelkamizga yuklangan yana bir asosiy vazifamiz – bir honadonning yaxshi bekasi bo'lish, o'sha yerda uyimizdagidek, balki undan ham ma'naviy boyroq muhit yaratish, toza millat naslini davom ettirishga tayyor bo'lishimizda aynan bu davr, ya'ni balog'at yoshi, “bo'yga yetish davri juda muhim davr hisoblanadi. “Sog' tanda sog'lom aql” deb bejiz aytilmagan.

Sog'lom qiz, sog'lom ayolgina oilada yuqorida aytilgan yaxshi ma'naviy muhitni yaratishning, millatga sog'lom farzand xadya etishning uddasidan chiqa oladi. Shuning uchun ham, hozir, e'tibor beryapsizmi, maktabda ustozlaringiz, kollejda o'qituvchi va tarbiyachilaringiz, uyda buvi va oyingiz, sizning ham aqlan, ham jismonan sog'lom rivojlanishingizga juda katta ahamiyat berishyapti. Keyingi vaqtda o'zingiz jismonan tez o'sayotganingiz kabi, ma'nau ham o'zgarayotganingizni sezayotgandursiz. Har jihatdan ko'zga tashlanadigan qiz bo'lib boryapsiz. Ammo unutmangki, har dam g'animat. Shu g'animat damlarni televediniyaning ba'zi yengil yelpi ko'rsatuvlarini ko'rish, internetning ayrim “miyani suyultiradigan” o'rgimchak uyasidek chalkash bo'limlarini kavlashtirish bilan o'tkazmang.



Haqiqiy va soxta hayotning farqiga boradigan, yaxshi – yomonni ajratadigan vaqtingiz keldi, buni unutmang. Ko'p narsalar siz ko'rayotgan, eshitayotgan damda juda muhim ko'rinsa ham, aslida miyangizni g'ovlatishdan nariga o'tmaydi. Shuning uchun o'zingiz uchun foydasiz deb bilgan narsalarni iloji boricha kamroq ishlatishga, internet tarmoqlariga ham kamroq kirishga harakat qiling, va ana shu narsalarga ketayotgan vaqtingizni foydali ishlarga sarflashingiz ham mumkin. Masalan: kitob o'qish, uy ishlarida onamizga ko'maklashish, o'zimiz uchun foydali ma'lumotlarning barchasini faqatgina internet tarmoqlaridan emas, balki anchagina foydaliroq bo'lgan kitoblardan ham olishimiz mumkin. Nima bo'lganda ham iloji boricha hayotga muhabbat bilan qarab, undan faqat yaxshiliklar izlab, o'zimizda shijoat, kuch, g'ayrat topib har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishga harakat qilaylik, bu borada nima foydali bo'lsa barchasini o'zimiz uchun amalga oshiraylik.

Mening xulosam shuki: qiz bola orzu qilsin, kelajakka maqsad qo'ysin va ana shu maqsad yo'lida vaqtning har bir daqiqasini qadriga yetgan holda, har bir imkoniyatdan foydalansin, harakat qilsin, ilm olsin, mehnat qilsin va jamiyatda ham, oilada ham o'z burch ma'suliyatini unutmagan holda o'z qadr – qimmatini va o'rnini topadi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR

1. Sh. Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov. Hikmatnoma (O'zbek maqollarining izohli lug'ati). Toshkent 1990.
2. Tafakkur gulshani (Vatanimiz va xorijiy mualliflarning aforizmlari va hikmatli so'zlari). V. L. Vorontsov. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent 1981
3. Qizlar daftari. Raxima Shomansurova. Toshkent 2016.
4. "Xotin – qizlar ensiklopediyasi". "O'zME" – T.: 2010.
5. Raxima Shomansurova. Rux pokligi – dil jilosidan.. T.: "O'zME" 2004.
5. Tarbiya. Ota – onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. "O'zME". T.: 2010.



EXPRESSION OF GENDER CHARACTERISTICS IN ANTHROPOCENTRIC PROVERBS

Raimova Nafosat Olimovna

Toshkent shahar Yakkasaroy tumani 26-maktab, 2-toifa ingliz tili o'qituvchisi

ABSTRACT: The human-centric worldview permits to explore the part of the human figure in phonetics in line with inquire about destinations. This in turn puts man at the center of phonetics. The current thesis statement is based on the standards of the human-centric worldview, which analyzes the linguocultural angle of human-centric maxims, i.e., the assessment and symbolism of the human gender orientation, and outlines them with cases.

KEY WORDS: gender, linguocultural, oriental, European, anthropocentric proverbs.

АННОТАЦИЯ: человекоцентристское мировоззрение позволяет исследовать роль человеческой фигуры в фонетике в русле познания о предназначении. Это, в свою очередь, ставит человека в центр фонетики. Текущая тезисная постановка опирается на нормы человекоцентрического мировоззрения, анализирующего лингвокультурный ракурс человекоцентричных предложений, т. е. оценки и символики гендерной ориентации человека, и обрисовывает их падежами.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: род, лингвокультура, восточные, европейские, антропоцентрические пословицы.

INTRODUCTION

In this scientific work, English phraseological layers were studied from the perspective of gender studies. After all, the gender analysis of the linguistic representation of the world of femininity and masculinity in this culture makes it possible to determine the common and different characteristics of representatives of different languages. In English, the gender aspect is clearly expressed in the content plan of phraseology. In the Uzbek language, the gender aspect is clearly manifested in the expression plan of phraseology. This shows that family and family relations are sacred for the Uzbek people.

According to the results of the gender analysis of English and Uzbek phraseological units and paremies, it became clear that in both languages, the negative expression of a woman is more important than its positive expression. This is a sign that determines the attitude of society members towards a negative trait. If the majority of phraseological units in the Uzbek language are proverbs related to folk art, in the



English language the focus is on the representatives of the lower ranks. Concepts of woman and man are depicted at different levels in different conceptual layers.

DISCUSSION

The analysis of the characteristics of female and male characters showed that in both languages men are associated with such qualities as "bravery" and "bravery". However, in the Uzbek language, they are more vividly described. Phraseological units expressing men's weakness and indecisiveness (like mother's man) are also reflected in both languages, but such phraseological units are more common in English.

The analysis of the conceptual layer "appearance" from the physiological characteristics of women and men showed the importance of appearance for English women. In the Uzbek language, this layer is described in general, and the outer beauty of an Uzbek woman, as well as her inner beauty, is vividly expressed in the symbols of "woman - housewife" and "woman - mother". Phraseological units representing men's appearance were not the majority in both languages, and attention was paid mainly to their physical form.

A gender analysis of the layer that describes the social characteristics of women and men confirmed that from ancient times, profession was important for men, that is, women only for the family, and men for the community. Although the gender analysis of phraseologisms and paremias of the English and Uzbek languages allows us to observe the specific characteristics of androcentrism in all layers, the fact that we encounter situations that weaken androcentrism during the research is the basis for saying that masculinity does not completely dominate the phraseological layer of the language.

In phraseology, the superiority of the negative over the positive can be attributed not to the gender factor, but to the human understanding of reality, that is, it is accepted as a positive norm, therefore it is not fully reflected in the language. The negative aspect, the opposite of the positive, is expressed in the language as a norm not accepted in society.

Gender parity entails equality between men and women, especially when it comes to rights and power positioning. As far as the definitions of a 'proverb' are concerned, they are based on precision, origin in human experience, social phenomena, folklore and general truth. If one keenly look at all the 'definitional components', truthfulness is quite challenging of all because it is not the absolute truth rather it is the societal interpretation of the truth. As already mentioned, proverbs provide a general view on life and serve as indicators of general perception or folk wisdom.



Since proverbs reflect the wisdom of masses, they mirror the cultural norms, beliefs and values of life of the culture or society they come from. It is interesting to note that the ideas or notions presented in proverbs across the globe are the same. It is only the choice of language, use of rhetoric devices and application of imagery that varies from language to language and culture to culture. These choices of language have a significant impact. Language plays a vital role in shaping the material reality; and the relation of language with power can also not be denied.

CONCLUSION

Through Uzbek maxims, all the images express the thought of the objectification of a lady who considers herself a principled performing artist. This inquire about is almost the expression of gender in human-centric sayings. This work was based on perceptions on the poetics and aesthetics of English adages: rhyme, similar sounding word usage, and structure. This leads me to look at whether it is conceivable to execute these tasteful implies in Uzbek culture. Some time recently analyzing the issue, the center was on the interrelationship of intelligence through Uzbek and English maxims through scholarly and comparative investigate. In arrange to attain this objective, two corps of Uzbek and English sayings were shaped, separated into bunches concurring to their topical relationship, "Uzbek adages" were interpreted into English, and English sayings into Uzbek; and at long last, a comparison of the shallow and profound implications of the English and Uzbek adages. A comparative consider of English and Uzbek maxims is an imaginative work. As distant as I know, I think I was the primary to begin this field of phonetic inquire about. Other researchers have compared English with other dialects.

REFERENCES

1. The New Dictionary of Cultural Literacy (Third Edition, 2002)
2. Online Oxford Dictionaries
3. American paremiologist Bartlett Jere Whiting's definition (1994)
4. Bagautdinova G.A. Man in phraseology: anthropocentric and axiological aspects: Abstract. d ISS ... Doctor . filol . sciences. - Kazan, 2007.- 46 p.
5. Gerasimenko I.E. Cultural codes of gender representations (according to a survey of students of Tula universities). // Scientific reports of Belgorod State University. Series: "Philosophy. Sociology. Right". - Belgorod, 2016. - Issue . 36, No. 10 (231). - S. 67.
6. Gerasimenko I.E. Cultural codes of gender representations (according to a survey of students of Tula universities). // Scientific reports of Belgorod State University. Series: "Philosophy. Sociology. Right". - Belgorod, 2016. - Issue . 36, No. 10 (231). - S. 68.
7. Krasnykh V.V. Codes and cultural standards (invitation to talk). // Language, consciousness, communication: Sat. articles. - M.: MAKSPress, 2001. - Issue. 19. - S.
8. Simbirtseva N.A. "Code of culture" as a cultural category. // Knowledge. Understanding. Skill. - M., 2016. - No. 1. - S. 161.



ZAMONAVIY O'ZBEK HIKOYACHILIGI

Absayitova Shahlo To'lqinjon qizi

Samarqand viloyati Samarqand shahri 33-umumiy o'rta ta'lim maktabining
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Zamonaviy o'zbek nasri tobora globallashib, butun insoniyat taqdiriga daxldor muammolarni badiiy talqin etib bormoqda. O'zbek yozuvchisi olam va odamni anglashda, uning maqsad va vazifalarini belgilashda sharqona badiiy-falsafiy konsepsiyani ilgari surmoqda.*

Kalit so'zlar: *nasr, detal, tasvir, mohiyat, personaj, hikoya, badiiy asar, realistik hikoya, povest, roman.*

Zamonaviy o'zbek hikoyachiligi mavzu mohiyati ham qariyb yuz yildan ziyod umrini insonning o'zini anglashini yoritishga bag'ishlab yashamoqda. Albatta, bu janrning shakllanishi, taraqqiyotida ko'plab adiblarimizning adabiy-ijodiy tajribalari to'planib, bugungi qiyofasiga ega bo'ldi. O'zbek hikoyachilik maktabini yaratgan namoyondalardan Abdulla Qahhor, G'afur G'ulom, Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Normurod Norqobilov, Shoyim Bo'tayev, Sobir O'nar, Isajon Sulton, Ulug'bek Hamdam kabi yozuvchilarning o'ziga xos ijodiy tajribalari yosh qalamkashlarga ham mahorat darslari vazifasini o'taydi. Hikoya prozaning eng kichik janri bo'lsa-da uning bag'rida juda ulkan dunyoqarash, hayotiy tajriba yashaydi.

Hikoyaga har xil ta'rifu tavsiflar berilgan. Biroq, har bir hikoyaning ta'rifi Erkin A'zam ta'biri bilan aytganda, o'zi bilan birga tug'iladi. Adabiyotshunoslikda tahlil va talqin tushunchalari juda keng qo'llanilib, ular badiiy asarni tushunish jarayonining bir-biriga bog'liq jihatlaridir. Badiiy asarni tushunish, uning mazmun-mohiyatini anglash jarayonida tahlil va talqin muhim ahamiyatga ega.

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti hikoyachilik janrida kichik odamlar obrazi haqida so'z yuritar ekanmiz, ularda ko'p uchraydigan, yozuvchi qalamining o'ziga xosligini ko'rsatib turadigan badiiy detallar haqida gapirmasdan o'tib ketish mumkin emas.

Shu o'rinda Abdulla Qahhorning quyidagi fikrlarini eslab o'tish joiz: "...adabiy asarning maydonga kelishi uchun avtorning niyatigina kifoya qilmaydi. Avtorning niyati ma'lum bir ideyani tashviq qilmoq ekan, uni tashviq qila bilishi kerak. Tashviq qila bilishning asosiy shartlaridan biri esa o'quvchini ishontira bilishdir.

Abdulla Qahhorning XX asr o'zbek adabiyotida realistik hikoya ustasi bo'lib yetishishi, shuhrat qozonishi tasodifiy emas. Birinchidan, Qahhor ko'p asrlik o'zbek adabiyoti real hayotga keskin yuz o'girgan, bu davrda Ovrupa zamonaviy jahon adabiyoti tajribalariga tayanayotgan, Qodiriy romanlari, Cho'lpon lirikasi, hikoyalari,



Fitrat, Hamza dramalari orqali yangi yo'lga tushib olgan, realizm milliy adabiyotda yetakchi oqimga aylanib borayotgan bir pallada ijod maydoniga tushdi. Garchi Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, qolaversa, tengdoshlari Oybek bilan G'afur G'ulomlar hikoya janrida qalam tebratayotgan bo'lsalar-da, ular iste'dodi, tabiati, badiiy tafakkur tarziga ko'ra bu Janrning odami» emas edilar. Qahhorning «yozuvchi janrni emas, janr yozuvchini tanlaydi», degan gapi bor. Qahhor iste'dodi, badiiy tafakkur tarzi har jihatdan hayot hodisalarini hikoya shaklida ko'rish, idrok etishga moyildir. Go'yo u hikoya uchun tug'ilgan edi, roman, qissa, dramalarida ham adibning hikoya shakliga xos fikrlash tarzi shundoq sezilib, ko'rinib turadi; uning roman, qissa, dramalari o'ziga xos alohida-alohida epizodlar, bir-biri bilan bog'langan hikoyalar majmuasidan iboratga o'xshaydi.

Qahhor hikoyalari, birinchi navbatda, samimiyligi, ishontirish kuchi bilan kishini hayratda qoldiradi. Yozuvchi tasviridagi hamma narsa hayot hodisasi, aynan bo'lib o'tgan voqea, real hayotning bir bo'laki, epizodi bo'lib gavdalanadi; hikoyalarning ko'pchiligi real hayotiy asosga ega, ular adibning turmushda o'zi ko'rgan, eshitgan hodisalardan, tanish kishilar hayotidan olingan.

Avtor yoki personajlar tomonidan aytilgan gaplarga, asardagi detallarga, voqealarga kitobxon ishonmasa, hatto shubha qilsa ham, asarning qiymati qolmaydi". Ushbu jumlar orqali biz badiiy detalning tasvirda qanchalik muhim rol o'ynashi haqida bildirilgan fikrga e'tiborni tortishga harakat qildik. Endi savol tug'iladi : xo'sh, badiiy detalning o'zi nima ? "Badiiy detal mayda qismchalardan biri, – deb yozadi professor U.Normatov. – Biroq asardagi har qanday qismchalar detal bo'lavermaydi. Detalni tafsilotdan farq qimoq kerak. Tafsilotdan farqli o'laroq, detal qisqa va ixcham bo'ladi. U tasvir ob'ektini sintezlashtirib ko'rsatish, u haqida kitobxonda tez va aniq tasavvur hosil qilish xususiyatiga ega". Detal haqida maxsus kitob yozgan boshqa bir olim, taniqli adabiyotshunos va publisist Saydi Umarov esa unga quyidagicha ta'rif beradi: "Detal, odatda, yirik planda beriladi, u o'quvchini bir lahza to'xtatib, uning diqqat e'tiborini muhim bir narsaga jalb etadi, tasvir ob'ektini bo'rttirib, qabartirib ko'rsatib, u haqda tez va aniq tasavvur hosil qilish imkonini beradi".

Adabiyotshunoslikda yozuvchi qo'llagan detallarning u yoki bu vazifalari haqida ko'p gapiriladi-yu, ularning eng muhim xususiyatlaridan biri asarning emotsional vazifasini ochib berishdagi tomoni haqida kamroq fikr yuritilmoqda.

Xayriddin Sultonning "Odamlardan tinglab hikoya" to'plamidagi har bir detallar g'oyat kuchli hissiy qudratga ega, ular shu zahotining o'zida kitobxonga yetib boradi va unga kuchli ta'sir etadi. Ayrim yozuvchilar ba'zan butun boshli xarakter mohiyatini asosan portret tasviri orqali ochadi. Bunda u shunday yo'l tutadi: dastlab qahramon qiyofasidagi xarakterli belgilarni birma bir aytib o'tadi, so'ngra bu tafsilotlarni bitta



xarakterli detal orqali umumlashtiradi, yozuvchi keltirgan tavsilotlar xarakter qiyofasining u yoki bu tomoni haqida tasavvur qilish imkonini bersa, umumlashtiruvchi detal xarakter qiyofasini yaxlit va lo'nda qilib gavdalantiradi, qo'yadi, ayni vaqtda shu detal xarakter mohiyatini ham belgilaydi, xarakterni biz xuddi shu detal orqali tasavvur qilamiz. Xayriddin Sulton ijodida esa bu xarakter mohiyatiga unchalik e'tibor qaratilmagan. Xayriddin Sulton o'z asarlarini yozishda ko'proq ma'no-mohiyat va voqelikka e'tibor qaratadi, uning asarlarida potret xakteri muhim rol o'ynamaydi.

U, asosan, ma'no-mohiyat va asl voqelik orqali hodisani kitobxonga tushintirmoqchi bo'ladi va buni mohirona uddalaydi hamda u o'z asarlarini yaratishda soxta detallar yaratishdan qochadi. Chunonchi, buyuk yozuvchi Abdulla Qahhor tabiri bilan aytganda: "... hikoya, povest, roman va umuman hamma janrda bo'lgan, adabiy avtor tomonidan kiritilgan, soxta detal, hatto bir so'z ham butun asarning ta'sirini yo'qotadi".

Xulosa qilib aytganda, hikoyachilik bu shunchgaki ma'lum sujetga asoslangan voqelik yozish emas, balki aynan shu sujet orqali o'quvchiga ezgulik ulashish. Bugungi zamonaviy hikoyalar ayni shunaqa faqat voqelik asosida yozilayotgani biroz achinarli. Lekin guruch kurmaksiz bo'lmaydi deganlaridek, ayni shu kurmaklar zamonaviy hikoyachilikka berilgan aksariyat ta'riflarning sababidir. Hikoya yozuvchi tilga olgan davr va ayni hikoya yozilayotgan davr o'rtasidagi masofa saqlanishi lozim. Hikoya qahramonlariga to'xtalsak, biz o'zbek xalqi qadim-qadimdan bolalarimizga ayni hikoyalar, ertaklar aytib ularga axloqni, odobni o'rgatib kelganmiz. Abdulla Oripov ta'kidlaganidek, Sharqqa xos donishmandlik bilan yo'l tutganmiz. Shu boisdan yozilajak hikoyalarimizning bosh qahramonlarida butun millatga ta'sir etajak xususiyatlarni ifodalashimiz kerakligini unutmaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. –T., “Ma’naviyat”, 2000. -112 bet.
2. Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. Adabiy-tanqidiy maqola va risolalar. –T., “Akademnashr”, 2013. -336 bet.
3. N. Davurboyeva, “Jajman”ning Jilvalari// Yoshlik, 1991-yil, №5-son, 43-bet.
3. Do'smuhammad X. Nazarning umidbaxsh kemalari. Qarang: Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. Qissalar va hikoyalar. –T., “Yangi asr avlodi”, 2004. -212 bet.
4. Eshonqul N. Shamolni tutib bo'lmaydi. Qissa va hikoyalar. –T., 2005. -204 bet.
5. Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq. –T., “Akademnashr”, 2014. -544 bet.





6. Otajonova, M. (2020). The semantic functions of myth in an artistic context. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(11), 225-229.

7. Omanbaevna, O. M. (2020). MYTHS AND MODERN UZBEK STORIES (some commentary on the story of Nazar Eshankul's "The tune of a flute" myth-story). ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(12), 49-53.

8. Abdurahmanova, M. (2021). LEGAL FUNDAMENTALS OF LAND RESOURCES OF USANCE TO ACHIEVE ECONOMIC EFFICIENCY. Экономика и финансы (Узбекистан), (Спецвыпуск 4), 187-189.

9. Tursunaliyevna, A. M. (2021, August). OCCASIONALISM AND THEIR ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTIONS. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 19-23).

10. Karimova Gulshod Mamatkadyrovna. (2022). The Role of Cholpon in Raising Uzbek Spirituality. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 15, 18–21. Retrieved from <https://www.zienjournals.com/index.php/zjssh/article/view/2945>



ОТЛИЧИЕ РУССКОЯЗЫЧНОЙ ПОЭЗИИ ОТ РУССКОЙ ПОЭЗИИ

**Акбаров Бобур Баходир угли
студент 1 курса**

Термезского педагогического института

направление русский язык и литература для иноязычных групп

